




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifatini, mazmuni va haqiqiylikni uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo'rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an'analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O'zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na'tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O'zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO'BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O'RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo'jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O'zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o'rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G'allaorol tumani nurobod qishlog'i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO'RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E'zoza MIZAMOVA "Ravshan" dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO'RAQULOVA, O'zbek xalq ertaklarida "Oq" va "Qora" ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo'llangan ba'zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o'zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o'ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi "sar sila" marosimi: an'anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

NAMANGAN VILOYATI SHEVASINING O'ZIGA XOS LEKSIKASI

THE LEXICAN VOICE OF THE NAMANGAN VALLEY DIAGNOSIS

Mohidil SHERXONOVA,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
qoshidagi Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati
instituti magistranti*

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OLWH1048

Annotation. *This article examines the lexical features of rural and urban dialects of the Namangan Valley through comparison with the literary language. The article attempts to provide a clearer explanation by presenting examples in tables in both literary language and dialectal forms.*

Key words. *Namangan dialect, lexical unit, dialect, vernacular, literary language, Karluk dialect, Kipchak dialect.*

Sheva, lahja, dialekt atamallari adabiy tilni hosil qiluvchi, boyituvchi atamalar hisoblanadi. Ammo ularni bir-biridan farqlash lozim. Tilshunos olim Samixon Ashiboyev sheva soʻzi forscha ravish, tarz, yoʻsin degan maʼnolarni bildirib, fanda oʻziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan xalq tilining kichik territoriyaga oid qismini anglatishini, lahja arabcha soʻz boʻlib u ham ravish, tarz, yoʻsin, sheva maʼnolarini anglatishini, dialekt soʻzi esa yunoncha sheva degan maʼnoni anglatib, aksariyat til xususiyatlari oʻxshash boʻlgan shevalarni birlashtirishini aytadi [Ashirboyev S. 2016:5]. Oʻzbek va turkiy tillarda sheva, lahja, dialekt atamallari isteʼmolda bor. Lekin turk tilida biroz farqli, chunki bu tilda **lehçe** (lahja) soʻzi tilga nisbatan, **ağız** soʻzi esa shevaga nisbatan qoʻllaniladi.

Bizning tilimiz oʻz va oʻzlashgan qatlam orqali yil sayin sayqallanib borishi barchaga maʼlum. Negaki Oʻzbekiston juda ham shevalarga boy hudud hisoblanadi. Shevalar asosida yaratilgan badiiy matnlar ham anchagina. Biz ulardan oziqlanamiz va ayrimlarini bugungi kunda adabiy til miqyosiga olib chiqmoqdamiz. Masalan, “oyijon” leksemasi aslida ayrim hududlarda, jumladan, Namangan shahar hududida qoʻllanuvchi leksema hisoblanadi, ammo bugungi kunda adabiy til miqyosiga oʻtib bormoqda.

Oʻzbek tili koʻp shevaliligi bilan boshqa tillardan farqlanib turadi. Har bir viloyatning oʻziga xos shevasi mavjud va baʼzilarida adabiy tildan tubdan farq qiluvchi leksemalarni ham uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, Namangan viloyati shahar shevasi adabiy tildan ham fonetik, ham leksik, ham semantik xususiyatlari bilan anchagina farqlanadi.

Dastlab viloyat haqida maʼlumot beradigan boʻlsak, Namangan viloyati Respublikamizning sharqida, Fargʻona vodiysining shimoli-gʻarbiy qismida joylashgan. Ushbu viloyat 1941-yil 6-martda tashkil etilgan. Viloyat sifatida tashkil etilmasidan avval Fargʻona tarkibidagi hudud boʻlgan. 1960-yil 25-yanvarda viloyat tugatilib, uning hududi Andijon va Fargʻona tarkibiga kirgan. Viloyat 1967-yil 18-dekabrda qayta tiklangan. Qayta tiklash davrida viloyat tarkibiga Zadaryo, Namangan, Pop, Uychi, Uchqoʻrgʻon, Chust va Yangiqoʻrgʻon tumanlari hamda Namangan shahri qoʻshilgan. Vodiya Chust, Kosonsoy, Namangan shaharlari va 10 ta tuman, 99 ta qishloq fuqarolari yigʻini mavjud [kun.uz].

Ibrohim Darveshovning ma’lumot berishicha, Namangan viloyatida o‘zbek tilining qarluq va qipchoq lahjalarida so‘zlashuvchi 2 603 012 nafar aholi istiqomat qiladi [Darvishov I. 2019 : 16]. Bu 2019-yilgi ko‘rsatgich. 2025-yildagi ma’lumotga tayanadigan bo‘lsak, aholi soni 3 144 800 kishini tashkil etyapti.

Mazkur hududda istiqomat qiluvchi tub aholi sheva belgilarida ko‘ra o‘zbeklarning qarluq va qipchoq lahjasiga mansub. Qolaversa, ushbu mintaqada rus, qozoq, uyg‘ur, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, tatar millatiga mansub aholi ham istiqomat qiladi. Viloyatning ayrim qishloq hududlari to‘liq qipchoqlashgan. Pop, Mingbuloq, To‘raqo‘rg‘on, Saroy, Chortoq, Qumqishloq, Yangobod kabi tuman va qishloqlar shular jumlasidandir.

Viloyatning ma’muriy markazi hisoblangan Namangan shahar shevasining shakllanish jarayonida nafaqat turkiy tillar, balki fors-tojik tilining fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlari ham muhim ta’sir ko‘rsatgan. Ana shu jihatlari bilan boshqa o‘zbek shevalaridan ajralib turuvchi Namangan shahar shevasining o‘ziga xos lisoniy belgilari E.D. Polivanov, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, G‘.O. Yunusov singari olimlar tomonidan o‘rganilib, tasnif va tahlil qilingan. S. Otamirzayeva va S. Tulyakovlarning nomzodlik dissertatsiyalarida [Atamirzayeva S. 1965 : 36] Namangan shahar shevasining fonetik hamda morfologik jihatlari ilmiy asosda o‘rganilgan. Shu asosda shevaning lingvistik xususiyatlari yuzasidan muhim ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Namangan shahar shevasi “y” lovchi qarluq lahjasiga mansub. Ushbu hududda istiqomat qiluvchi aholi nutqi juda ham qiziqarli. Leksik birliklarda farqlovchi xususiyatlar ham talaygina. Shevalariga xos so‘zlarning leksik tabiati va semantik strukturasi turli omillar ta’sirida shakllangan bo‘lib, bunday birliklarning ayrimlari adabiy tilda iste’moldan chiqib ketgan, faqat shevalarda saqlanib qolgan. Jumladan, shunday so‘zlar qatoriga: shiyda, cho‘kitmoq, tupchik, uvuz, hovon, chorqi, tupka, jukum, og‘il, chipong, qo‘g‘a//qo‘ga, satil, so‘lpiltiriq, so‘ppi kabilarni kiritish mumkin.

Quyidagi jadvalda Namangan shahri hamda qishloq shevalariga xos leksik birliklar adabiy til birliklari bilan qiyosiy tarzda keltirilib, ularning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlari yoritiladi:

T/r	Shevaga xos leksik birlik	Adabiy til
1.	Acha, katta aba	Buvi
2.	Opodda	Bobo
3.	Kinchabi	Kelin oyi
4.	Suzma	Chakki
5.	Qoqirim	Ayron
6.	Ova, katta dada	Amaki (dadaning akasi yoki ukasi)
7.	Shilpildoq	Beshbarmoq
8.	Og‘il	Molxona
9.	Tog‘ora	Lagan
10.	Patnis	Lali
12.	Chimaliq	Chumoli
13.	Lo‘xrak	Chuvalchang
14.	Shoti	Narvon
15.	Mishig‘	Mushuk

16.	Aba	Ona
17.	Olvali	Olcha
18.	G'aynali	Olxo'ri
19.	Uda	Bir yil ichida tug'ilgan bolalar
20.	Boja	Opa-singil erlari
21.	Aya	Opa
22.	Ini	Uka
23.	Singilaba	Singil
24.	Dede	Ota
25.	Oya	Ustoz
26.	Paqir, satil	Chelak
27.	Paytava	Xalta
28.	Chichi	Chaqaloq
29.	Tutrug'i yo'q odam	Qo'pol odam
30.	Chaqirdi	Marosim nomi
31.	Lukshon	Marosim nomi
32.	Sabzi qirdi	Marosim nomi
33.	Qizil to'y	To'y
34.	Lagan	Tovoq

Yuqorida keltirilgan so'zlar Namangan shahar shevasida faol qo'llaniladi. Adabiy tilda **buvi**, ya'ni onaning onasi ma'nosini ifodalovchi so'z Namangan shahar shevasida **acha**, **kattaba** tarzda qo'llaniladi. Bundan anglashiladiki, kattaba so'zi **katta ona** tarzida bo'lgan va shevada qisqarib **kattaba** shaklida aholi nutqiga singib qolgan. "Aba" so'zi esa shevada ona ma'nosini ifodalaydi. **Opodda** so'zining yoyilgan shakli esa **oppoq doda** hisoblanadi.

Kelin oyi termini o'zbek tiliga xos umumiy hodisalardan biri hisoblanadi. Ushbu termin turkiy tillarning deyarli barchasida kelin / gelin shaklida qo'llanadi. Olimlarning aksariyati "kelin" terminining kelib chiqishi borasida bir xil fikrni ilgari suradilar. Unga ko'ra, mazkur so'z ke/kelmoq fe'l asosiga fe'l va ot yasovchi -in, -un qo'shimchalari qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, "kelgan", "oilaga qo'shilgan", "kelgindi" ma'nolarini anglatadi.

Biroq Namangan umlautli shevalarida bu termin boshqa o'zbek shevalarida uchramaydigan kinchabi shaklida ham ishlatiladi. "Kelin oyi" birikmasidagi oyi komponenti Namangan shevasida bibi / bi termini orqali ifodalanadi. E. V. Sevortyan bibi terminining bir necha ma'nolarini qayd etar ekan, uning aka yoki amakining xotini, shuningdek, ona, opa, moma va buvi ma'nolarida ham qo'llanishini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, "kelin" termini aslida qarindoshlik ma'nosini bildirmaganligi sababli unga ona, acha, aya kabi qarindoshlik terminlari qo'shib, yangi terminlar hosil qilingan. Namangan shevalarida esa oyi, aya va acha terminlariga sinonim bo'lgan bibi / bi unsuri qo'shib, "kelgan ona" ma'nosini ifodalovchi birlik yuzaga kelgan.

Kinchabi termini ham shakllanish jarayonida murakkab fonetik o'zgarishlarga uchragan bo'lib, u dastlab kelin + acha + bibi birliklarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Keyinchalik fonetik qisqarish va tovush almashinuvi natijasida kelinchabibi shakli **kinchabi** // **kinchabi**: ko'rinishini olgan [Saidova M. 2021:50].

Xulosa qilib aytganda, Namangan vodiysi shahar va qishloq shevalari o'zining boy leksik tarkibi, tarixiy qatlamlari hamda semantik xususiyatlari bilan o'zbek tilining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Tahlillar Namangan shevalarining shakllanishida

qarluq va qipchoq lahjalari bilan bir qatorda fors-tojik tilining ham muayyan ta'siri mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, qarindoshlik terminlari, maishiy hayotga oid leksemalar hamda marosim nomlari shevaning milliy-madaniy xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Maqolada adabiy til va sheva birliklarini jadval asosida qiyosiy tahlil qilish orqali Namangan shevalarining leksik boyligi hamda lingvistik ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalari shevalarni o'rganish o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, dialektologik xususiyatlari va milliy madaniyatini tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi – Toshkent: Navro'z, 2016.
2. Атамирзаева С. Звуковой состав наманганского говора узбекского языка. – Ташкент, 1963;
3. Тулаков С. Морфологические особенности наманганского говора. – Ташкент, 1965.
4. Дарвишов И. Ареал тилшунослик: жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари – Тошкент, 2019.
5. Saidova M. O'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari – Toshkent, 2021.
6. <https://kun.uz/region/namangan/info?ysclid=mp5j0ct0zw243929626>